

YASHIL BUDJETLASHTIRISHGA O‘TISHNING IJTIMOIIY VA IQTISODIY AHAMIYATI

Mamataliyev G‘ayrat Chori o‘g‘li

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti
bosh mutaxassisi Bank-moliya akademiyasi MBA magistrant*

Bazarov Shodi Abdiraxmonovich

*Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Toshkent
shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi
Bosh buxgalter Bank-moliya akademiyasi MBA magistrant*

Ushbu dissertatsiya ishida O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning moliyaviy jihatlari, yashil budjetlashtirish, uning manbalarini shakllantirish va nazariy-huquqiy asoslari yoritib o‘tilgan. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotdan samarali foydalanish uchun to‘g‘ri moliyalashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Jumladan “yashil budjetlashtirish” o‘tishning ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati yo‘nalishlari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: **yashil, iqtisodiyot, yashil budjetlashtirish, moliyalashtirish manbalari, moliyalashtirish, ijtimoiy, iqtisodiy.**

Kirish: “Yashil budjetlashtirish” davlat moliyasini boshqarishga qaratilgan innovatsion yondashuv bo‘lib, fiskal mas‘uliyatni atrof-muhit masalalari bilan birlashtiradi. Bu amaliyot barqarorlik maqsadlari va amaliyotlarini milliy darajadagi moliyaviy rejalashtirish va qarorlar qabul qilish jarayonlariga integratsiyalashni o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda¹ "yashil budjetlashtirish" ning paydo bo‘lishi mamlakatlar uchun atrof-

¹ Government at a Glance 2021. <https://www.oecd-ilibrary.org/docserver/2f80b7b0-en.pdf?expires=1674797697&id=id&accname=guest&checksum=F0E280082655FEBF3497C36CAA96FC23>
[27.01.2023]

muhit va iqlim maqsadlariga erishishni qo'llab-quvvatlashda budget jarayonidan foydalanish qanchalik muhimligini ko'rsatib berdi.

Bundan tashqari, yashil budgetlashtirish amaliyoti shaffoflik va hisobdorlikni o'z ichiga qamrab oladi va bu budget qarorlarining atrofmuhitga ta'sirini kuzatish va hisobot berishni, ularning barqaror rivojlanish maqsadlariga mos kelishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvni qo'llash orqali hukumatlar, tashkilotlar va insonlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, barqaror amaliyotlarni ilgari surish va kelajak avlodlar uchun yashil kelajakka erishishga faol hissa qo'shishlari mumkin.

Yashil budgetlashtirishga o'tishning ijtimoiy ahamiyati

Iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi va atrof muhitning tanazzulga uchrashi sayyoramiz va jamiyatlarimiz oldida turgan asosiy tahdid hisoblanadi. Global iqlim o'zgarishi sharoitida yashil budgetlashtirishga o'tishning ijtimoiy ahamiyati beqiyos. Yashil budgetlashtirishga o'tish orqali aholining bandligini va daromadlarini oshirish, uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlari yo'qolishining oldini olish mumkin. Yashil budgetlashtirish orqali, atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta'sirlarni kamaytirish va natijada inson salomatligini yaxshilash mumkin. Demak, **birinchidan**, yashil byudjetlashtirishning eng muhim ijtimoiy ahamiyati bu – inson salomatligining yaxshilanishidir. **Ikkinchidan**, yashil budgetlashtirish doirasida, asosiy xizmatlarni ko'rsatish va iqlim o'zgarishi ta'siriga tobe bo'lgan aholi uchun oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Aholi va aktivlarning iqlim bilan bog'liq zararlari ta'sirlariga tobeligi darajasini, birinchi navbatda, ularning zarar keltiruvchi hodisalarga qarshi bardoshli bo'lish uchun moslashish qobiliyatini oshirish orqali kamaytirish mumkin. Ba'zi hollarda ta'sirlarga tobelik darajasi muayyan bir zararli hodisaga nisbatan kamaytiriladi, masalan, yo'llar qurg'oqchilikka chidamliroq (qurg'oqchilik ta'siriga tobeligi kamroq) qilib ko'riladi. Biroq, ko'pincha, daromad olish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlarining mavjudligi kabi umumiy omillar

ta'sirlarga tobelikni orttiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.² **Uchinchi**dan, iqlim ofatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilish maqsadida ijtimoiy himoya qilish choralari amalga oshiriladi. Mamlakat yoki aholi duch kelishi mumkin bo'lgan iqlim xavflariga va kelajakdagi bashorat qilinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qarab, xuddi shu faoliyat iqlim o'zgarishiga moslashishga hissa qo'shishi (iqlimga bardoshlilikni orttirishi) yoki "tegishli tarzda moslashmaslik" (iqlimga bardoshlilikni pasaytirish) ni tashkil qilishi mumkin. Misol uchun, yangi suv resurslarini rivojlantirish aholini kelajakdagi qurg'oqchilikka bardoshliroq qilishi yoki kelajakda tanqisroq bo'ladigan suv resurslariga qaramligini orttirishning bir yo'lini tashkil qilishi mumkin.

Yashil budjetlashtirishga o'tishning iqtisodiy ahamiyati

Yashil budjetlashtirishni joriy qilish, iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. **Birinchi**dan, yashil budjetlashtirish orqali davlatning eng muhim sohalardan biri bo'lgan energetika sohasida barqarorlikka erishish mumkin. Yashil budjetlashtirish uchun "salbiy" hisoblangan qazib olinadigan energiya resurslariga ajratiladigan subsidiyalardan xalos bo'lish orqali va bu subsidiyalarni qayta tiklanadigan energiya resurslariga yo'naltirish orqali energetika sohasini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish va uni barqarorlashtirish mumkin. **Ikkinchi**dan, yashil budjetlashtirish orqali qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, yerdan foydalanish, suv ta'minoti, baliqchilik va boshqa ko'plab ekologik sohalarni rivojlantirish uchun muhim sanaladi. Bu sohalarda iqlim va atrof-muhit maqsadlariga erishish uchun qilinadigan ishlar, qisqa muddatli iqtisodiyotda ayrim qatlamlar uchun(masalan, baliqchilikdagi cheklov) iqtisodiy zararli bo'lib tuyilishi mumkin, ammo uzoq muddatda, muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. **Uchinchi**dan, yashil budjetlashtirish mamlakatning yana bir muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan transport sohasini rivojlantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, shahar va qishloq jamoat transporti tizimlarini rivojlantirish orqali yuqori uglerodli transport turlaridan modal siljishga erishish mumkin. Bundan tashqari, yashil

² O'zbekistonda iqlim byudjetini belgilash: yo'riqnoma. Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturi (BMTTD) O'zbekistondagi vakolatxonasi (draft version) [20.01.2023]

budjetlashtirish orqali chiqindi gazidan transport yoqilg'isi sifatida foydalanish, havo transporti harakatini samarali boshqarish, aeroport tizimlarining samarali ishlashi yoki joylarda qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish kabi dasturlar amalga oshiriladi.

Yashil budjetlashtirish iqlim o'zgarishining oldini olish va yashil iqtisodiyotga o'tish uchun asosiy kalit. Buning sababi shundaki, byudjetlashtirish hukumatning siyosiy ambitsiyalarini qanday amalga oshirish niyatida ekanligining asosiy ifodalaridan biridir. 2019-yilgi Yevropa Komissiyasining Yashil kelishuv bayonotida ta'kidlanishicha, "yashil budjetlashtirish vositalaridan ko'proq foydalanish davlat investitsiyalari, iste'mol va soliqlarni yashil ustuvorliklarga yo'naltirishga va zararli subsidiyalardan voz kechishga yordam beradi".³

"The European Green Deal"⁴ hisobotida ta'kidlanishicha yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida milliy budjetlar muhim rol o'ynaydi. Yashil budjetlashtirish vositalaridan ko'proq foydalanish davlat investitsiyalarini, iste'mol va soliqlarni yashil ustuvorliklarga yo'naltirishga va zararli subsidiyalardan voz kechishga yordam beradi. Hisobotda ta'kidlanishicha, yashil budjetlashtirishni takomillashtirish buyicha komissiya tuzilgan bo'lib, komissiya a'zo davlatlar bilan yashil budjetlashtirish amaliyotlarini tekshirish va taqqoslash uchun ishlaydi. Bu yillik budjetlar va o'rta muddatli moliyaviy rejalarda atrof-muhitga e'tibor va xavf-xatarlar qay darajada inobatga olinishini baholash va ilg'or tajribalarni o'rganishni osonlashtiradi. Yevropa iqtisodiy boshqaruv tizimini ko'rib chiqish davlat moliyasining sifati kontekstida yashil davlat investitsiyalariga havolani o'z ichiga oladi. Bu Yevropa Ittifoqining moliyaviy boshqaruvini qanday yaxshilash bo'yicha munozaralarga ma'lumot beradi. Muhokama natijalari kelajakdagi har qanday mumkin bo'lgan qadamlar uchun asos bo'ladi, jumladan, qarz barqarorligi uchun xavf-xatarlardan himoyalangan holda Yevropa

³ Why is Green Budgeting important? https://economy-finance.ec.europa.eu/economic-and-fiscal-governance/greenbudgeting-eu_en [15.01.2023]

⁴ The European Green Deal <https://eur-lex.europa.eu/legalcontent/EN/TXT/?qid=1588580774040&uri=CELEX%3A52019DC0640>

Ittifoqining moliyaviy qoidalari doirasida yashil investitsiyalarga qanday munosabatda bo'lishi shular jumlasidandir.

Iqlim o'zgarishining iqtisodiy ta'siri ma'lum bo'lsa, moliyaviy ta'sir qanday bo'ladi? Irlandiyaning yetakchi oziq-ovqat chakana savdosi, ulgurji va oziq-ovqat xizmatlarini ko'rsatish kompaniyasi (Musgrave) ma'lumotlariga ko'ra, davlatning quyidagi uchta funksiyasi ko'rib chiqish maqsadga muvofiq: resurslarni taqsimlash; qayta taqsimlash; barqarorlashtirish. Iqlim o'zgarishi bu rollarni yanada muhimroq qilishi mumkin. Bu, ayniqsa, taqsimlash roli uchun to'g'ri keladi, chunki atrof-muhitning tashqi ta'siri to'g'risida xabardorlikning oshishi ushbu rolning ahamiyatini oshiradi, bu bozordagi muvaffaqiyatsizliklar bilan izohlanadi. Bu asosiy ta'sir bo'lsada, agar yumshatish siyosati kam ta'minlangan uy xo'jaliklarining nomutanosib ulushini ifodalovchi asosiy tovar va xizmatlarni qimmatroq qilsa, qayta taqsimlashning roli ham oshishi mumkin. Bundan tashqari, yumshatish siyosati va iqlim o'zgarishi iqtisodiy beqarorlikni kuchaytirishi va shu bilan barqarorlashtirishga bo'lgan ehtiyojni oshirishi mumkinligini istisno qilib bo'lmaydi.

Xulosa va takliflar

Yashil budjetlashtirishni joriy qilish har bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy resurslari va boshqa o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib har bir davlat uchun individual amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Yashil byudjetlashtirish amaliyoti ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, bu amaliyot orqali: energetika sohasida barqarorlikka erishish, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, yerdan foydalanish, suv ta'minoti, baliqchilik va boshqa ko'plab ekologik sohalarni rivojlantirish, transport sohasini rivojlantirish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Government at a Glance 2021. <https://www.oecd-ilibrary.org/docserver/2f80b7b0-en.pdf?expires=1674797697&id=id&accname=guest&checksum=F0E280082655FEBF3497C36CAA96FC23> [27.01.2023]
2. O'zbekistonda iqlim byudjetini belgilash: yo'riqnoma. Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturi (BMTTD) O'zbekistondagi vakolatxonasi (draft version) [20.01.2023]
3. Why is Green Budgeting important? https://economy-finance.ec.europa.eu/economic-and-fiscal-governance/greenbudgeting-eu_en [15.01.2023]
4. The European Green Deal <https://eur-lex.europa.eu/legalcontent/EN/TXT/?qid=1588580774040&uri=CELEX%3A52019DC0640>
5. Paris Collaborative On Green Budgeting. Climate Change And Long Term Fiscal Sustainability (2021)